

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUGUNGI KUNDA TUTGAN O'RNI**Xoliyorova Nozanin Ulmasbek qizi***Toshkent , TATU Kompyuter injiniringi fakulteti 1-bosqich talabasi**+998 (97) 937 07 21*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning hozirgi kunda jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni, hamda iqtisodiy, ijtimoiy, ta'lim va madaniy sohalariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuning bilan birga raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi kabi jarayonlarni ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi, raqamli texnologiya, raqamli xavfsizlik*

Bugungi globalashuv zamonida hayotimizda raqamli texnologiyalarning o'rni katta ahamiyat kasb etayotgani sir emas albatta. Raqamli texnologiyalar insonlar faoliyatining barcha sohalariga kirib kelmoqda. Ayni paytda raqamli texnologiyalar iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va kundalik hayotimizni ham yengillashtirib beryapdi. Yuqoridagi fikrlarga tasdiq sifatida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidagidek: "Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish - mamlakatimizning raqobatbardoshligini belgilaydigan eng muhim omillardan biridir". Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi jamiyatimiz hayotini yaxshilanishiga anchagina foydasi tekdi. Misol uchun, onlayn magazinlar ochib o'zlarini ish bilan bant qilmoqda bu esa bo'sh vaqtdan unimli foydalanish hamda qo'shimcha daromad bo'ladi faqat onlayn magazinlar emas balki onlayn kurslar turli xil til kurslari, pazandachilik kurslari, hunarmandchilik kurslari shunga o'xshash yana bir qancha kurslar yo'lga quyilgan. Avvallari navbat bilan kutubxonalardan qidirib topa olmaydigan kitoblarni hozirda onlayn kutubxonalarda topishimiz mumkin. Onlayn kutubxonalarda kitobni xohlasak mutolaa qilamiz, xohlasak audiosini eshitsak ham bo'ladi. O'quvchilar, talabalar uchun o'z qiziqishlariga qarab onlayn darslarda qatnashish imkoni bor. Bu esa ta'lim sifatini yanada yaxshilaydi. Ta'lim tizimida raqamli texnologiya rivojlanayotganining yaqqol isboti bo'ladi. Iqtisod sohasini ham raqamli texnologiyalashtirishga alohida e'tibor berilayotgani bejiz emas. Aholini sarson qilmaslik uchun elektr-energiyasi, gaz, suv kabi kommunal to'lovlarni ham elektron to'lov qilish imkoni yaratilgan. Shuning bilan birga kredit olish va kredit to'lash ham elektron tizimga o'tgan, avvalgidek hujjat tahlash tahlangan hujjatlarni imzolatish uchun eshik sanash kerak bo'lmay qoldi. Raqamli texnologiya kun sayin soat sayin rivojlanib imkoniyatlari kengaygan sari shaxsiy ma'lumotlarimizni himoya qilish, soxta axborotlarga qarshi kurashish ya'ni kiberxavfsizga ham e'tibor qaratishimiz kerak. Chunki axborotni soxtalashtirish kibr xujumlar ham rivojlanib

bormoqda. Xulosa qiladigan bo'lsak raqamli texnologiyalar jamiyatimiz hayotini tubdan o'zgartirib yangidan - yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq, raqamli texnologiyadan foydalanib ba'zilar qonunni buzmoqda bu esa jamiyatimizga katta zarar yetkazadi. Raqamli texnologiyalardan to'g'ri maqsadlar uchun foydalansak O'zbekiston yanada rivojlanib rivojlanayotgan davlatlar safidan chiqib rivojlangan davlat safiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2020-yil.
2. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
3. Tapscott, D. (2018). Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence.
4. Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy sayti — <https://mitc.uz>